



**MEHNATLARI HAMISHA MUHIM O'RIN TUTADI**

**3**

**KOMBINATNING HAYOTBAXSH QON TOMIRLARI**

**4**

**YOZGI OROMGOH – ENG ZAVQLI DARGOH**

**6**

**Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda**

# Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik  
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 31-iyul № 7 (1529)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

## BOSH MAQSADIMIZ – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

**BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR MUROJAATI**



### Hurmatli hamkaslar! Aziz metallurglar!

"O'zmetkombinat" Ajning vazifasi an'analarni asragan holda, mamlakat va jamiyat manfaati uchun yangi imkoniyatlar yaratishdir. Kombinat o'z oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarish yo'lida faol ishlamoqda va barcha fuqarolar va birinchi navbatda, o'z xodimlari manfaati uchun olg'a intilmoqda. Ammo bunga xalaqit beradigan muammo mavjud. Bu korrupsiya muammosidir.

Korrupsiyani boshqaruv tizimlarining nomukammalligidan foyda ko'radigan, shaxsiy manfaati uchun insoniy illatlardan mohirona foydalanadigan shaxslar keltirib chiqaradi. Korrupsiyaning asosiy zarari shundan iboratki, korrupsionerlar o'zları ortiqcha narsalarni qo'lga kiritib, boshqalarni zarus narsalardan mahrum qildilar. Ular hozirgi kunda kelajakda har birimiz uchun rivojlanish resursini yaratishi mumkin bo'lgan narsalarni o'g'irlashmoqda.

Korrupsiya davlat va xalqning taraqqiyotiga, farovonligiga rahna soluvchi illatdir. U bizning farzandlarimizni munosib kelajakka ishonmaslikka, halol martabani egalash imkoniyatidan, odil hukm va adolatga ishonishdan mahrum qildi.

Bugun barchangizga iltimos bilan murojaat qilmoqchiman. O'zlarining ma'lumki, O'zbekiston siyosi va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish davrini boshdan kechirmoqda, ochiq, raqobatbardosh, jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotga aylanishga intilmoqda. Ushbu rejalarни amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida mamlakatimizda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilindi va amalgा

oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev korrupsiya davlat tizimini buzayotgani, jamiyat barqarorligiga tahdid solayotgani, korrupsiyaga qarshi jamiyat bilan birlgilikda kurashish zarurligini ta'kidlamoqda. Kombinat jamoasi korrupsiya butun mamlakat va ayrim iqtisodiy subyektlarning rivojlanish istiqbollariga zarar yetkazishini anglab yetadi. Shuning uchun men sizlardan korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga befarq bo'lmasingizni va unga qarshi kurashishda shaxsiy hissalariningizni qo'shishga harakat qilishingizni so'rayman.

Kuzatuv kengashimiz korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida kombinat siyosatini qabul qildi. Biz korrupsiyaga nolinch bardoshlik taymoviliga asosan amal qilamiz – ya'ni o'z faoliyatimiz davomida korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishini qabul qilmaymiz. Kxonamizning mansabdor shaxslari va xodimlarining bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilik yo'li bilan korruption harakatlar bilan shug'ullanishi qat'iy ta'qilangan.

Biz xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish uchun ochiq va shaffof tanlov tizimini yaratdik. Kombinatda korrupsiyaning salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida Komplayens xizmatini tashkil etdik. Sodir bo'lgan qoidabuzarliklar to'g'risida xabar berishga tayyor bo'lgan shaxslardan tashabbus xabarlarini qabul qilish uchun "Ishonch telefoni" (shuningdek, Telegram-bot)ni ishga tushirdik.

### Hurmatli hamkaslar! Ishchi va xodimlar, rahbar va mutaxassislar!

Kombinatda korrupsiyaning har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishingizni so'rayman. Sizlarni befarq bo'lmashlikka, poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashda faol bo'lishga chaqiraman. Siz boshqaruvning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash uchun shaxsan javobgar ekanligingizni tushunishingiz, mablag'lardan samarali va oqilona foydalanish tizimini shakllantirishda ishtirok etishingiz kerak. Bu shuni anglatadiki, siz korrupsiya ko'rinishlarini aniqlash va oldini olish uchun shaxsan javobgarsiz.

"Ishonch telefoni" orqali siz pora berish yoki olish, shuningdek, noqonuniy rag'batlantirish, firibgarlik, til biriktilish, ish vakolatlarini suiiste'mol qilish va boshqa ko'plab qonunbuzarliklar to'g'risida xabar berishingiz mumkin. Kombinat har bir murojaatni huquqiy qo'llab-quvvatlash va obyektiv ko'rib chiqishni kafolatlaydi.

Rashid PIRMATOV,

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktor.

### BUGUNGI SONDA

#### NIGOH

Nazorat yanada  
kuchaytirildi

5

#### XABARDORMISIZ?

EPESning ishga  
tushganligiga 45 yil  
to'limoqda

7

#### SUD MAJLISIDAN

"Buzoqning yugurgani  
somonxonagacha"

8

#### KORRUPSIYA

"Mollarining botil yo'il  
bilan yemang!"

8

#### SO'RAGAN EDINGIZ

Qo'shimcha ta'til turlari  
bir nechta bo'lsa ular  
qo'shiladimi?

9

#### SALOMATLIK

Barcha uchun  
birdek muhim

10

#### SPORT

Katta tajriba  
maktabini o'tadi

11

#### IBRATLI HIKOYA

Yetimning haqqi

12

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SAYLANGAN PREZIDENTI O'Z LAVOZIMIGA KIRISHDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi-da, O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosim 14-iyul kuni Toshkentda bo'lib o'tdi.

**Unda deputat va senatorlar, davlat tashkilotlari rahbarlari, diplomatik korpus va jamoatchilik vakillari, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.**

Marosimni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z.Nizomxo'jaev ochib, Prezident saylovi yangilangan Konstitutsiyamiz va demokratik tamoyillar asosida, siyosiy faoliyat muhitida o'tganini ta'kidladi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilarning 87,05 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti etib saylanganini qayd etdi. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyevni qizg'in tabriklab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti guvohnomasini topshirdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Konstitutsiyasi va Qur'oni Karimga qo'l qo'yib mamlakatimiz Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlari-

ga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiya yuklatilgan vazifalarini vijdongan bajarishga tantanali holda qasamyod qildi. Marosimda davlatimiz rahbari nutq so'zlandi.

\*\*\*

9-iyul kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovida jami saylovchilarning 15 million 651 ming 405 nafari yoki 79,88 foizi ovoz berishda ishtirok etdi. Bu saylov natijalariga ko'ra Shavkat Mirziyoyev 87,05 foiz ovoz olib, g'olib bo'l-gandi. Robaxon Mahmudova 4,43 foiz, Ulug'bek Inoyatov 4,02 foiz, Abdushukur Hamzayev 3,74 foiz ovoz olgandi.

O'zbekistonning amaldagi davlat rahbari 2030-yilga qadar Prezidentlikda qoladi.

JARAYON JARAYON



### 6-AVGUST - TEMIR YO'L TRANSPORTI XODIMLARI KUNI

### TEMIR YO'LLAR - KOMBINATNING HAYOTBAXSH QON TOMIRLARI

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 2-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti xodimlari kunini nishonlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan bo'lib, soha xodimlari avgust oyining birinchi yakshanbasini kasb bayrami sifatida nishonlaydi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda ro'y bergan o'zgarishlar, xalqimiz turmush darajasi yuksalishida temiryo'llchlarning ham xizmatlari katta.

Hech shubhasiz, yurtimizda temir yo'llar barcha hududlarimizni, jumladan korxonalarni rivojlantirishda yangi-yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shu ma'noda, temir yo'llar - mamlakatning hayotbaxsh qon tomirlaridir, degan ibora ayni haqiqatdir.

"O'zmetkombinat" Ajning Yagona logistika markaziga qarashli Temir yo'l xizmati jamoasi ham bu borada korxonada keng miqyosli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Temir yo'l xizmatining barcha uchastkalari zimmalaridagi vazifalarni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda olib borishadi. Teplovoz mashinistlari, mashinist yordamchilari, poezd tuzuvchilar, yo'l montyorlari, vagon tuzuvchilar, yuk qabul qiluvchilar, elektriklar, harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash chilangarları, muhandislar, stansiya bo'yicha navbatchilar, dispetcherlar, stansiya boshliqlari kabilar bugungi kun talablari asosida ish olib borishadi.

(Davomi 4-sahifada).

### QURUVCHILIK SHARAFLI VA ULUG' KASB

## MEHNATLARI HAMISHA MUHIM O'RIN TUTADI

O'ZBEKISTONIMIZNING YANGI QIYOFASINI BARPO ETISH, VATANIMIZNING YUKSAK TARAQQIYOTINI TA'MINLASH, HAYOTIMIZNI YANADA OBOD VA FAROVON ETISHDA MOHIR QURUVCHI VA MUHANDISLAR, USTA VA ME'MORLAR, LOYIHACHI VA PUDRATCHI TASHKILOTLAR VAKILLARI - MINGMINGLAB BUNYODKOR INSONLARNING OLIJANOB MEHNATINI HECH NARSA BILAN O'LCHAB, BAHOLAB BO'LMAYDI.



Mamlakatimizdagi qurilish-bunyodkorlik ishlarni amalga oshirishda korxonada katta kuchni tashkil etuvchi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyat quruvchilari ham katta hissa qo'shmoqda. Ularning mehnati evaziga yirik loyihamar, ishlab chiqarish topshiriqlari sifatli va o'z vaqtida bajarilmoqda.

Bunyodkorlik ishlari kombinat quruvchilarining eng yaxshi kuchlari, zamonaqiy maxsus texnikalar jalb etilgan, eng ilg'or qurilish materiallaridan foydalanilmoqda. Loyihachilar va quruvchilar hamisha zamonaqiy me'moriy, jumladan, milliy me'moriy dizaynlarga amal qiladilar. Kombinat tomonidan qurilgan barcha binolarda ochiq ranglarning ustunligi aniq ko'rindi, bu estetik va iqlimiy omillarni hisobga olgan holda o'ziga xos amaliy ma'noga ega. Qurilayotgan ob'ektlar ularga tutash hududlarni obodonlashtirish bilan birgalikda yagona me'moriy ansamblni tashkil etadi.

Shunday qilib, yil boshidan buyon Qurilish-montaj bo'linmamiz bunyodkorlari EPES hududida avtoturargoh qurdilar, yuqori chidamli koks ishlab chiqarish maydonchasini foydalanishga topshirdilar, Zoldir prokati sexida ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha qurilish-montaj ishlarni amalga oshirdilar. Kislorod-kompressor sexida ta'mirlash ishlari olib borishdi. Temir yo'l oshxonasi rekonstruksiya qilindi.

(Davomi 3-sahifada).

## MEHNATLARI HAMISHA MUHIM O'RIN TUTADI



**(Davomi. Boshlanishi  
2-sahifada).**

Kombinatda investitsiya loyihalari muvaffaqiyatlama amalga oshirilib, buning natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda. Ularning har birida korxona qurvchilari faol ishtirok etishmoqda. Bugungi kunda kombinatda yirik investitsiya loyihasi bo'lgan Quyuv-prokatlash majmuasini qurishda korxonamiz buniyodkorlari ishlab chiqarish uchastkalari, issiq briqetli temirlarni saqlash ombori va boshqa qurilishlarda ishtirok etmoqdalar.

Qurvchilarimiz oldida katta ishlar turibdi. Ular Quyuv-prokatlash majmuasini qurish loyihasini amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Tarkibiy bo'linmalarda mukammal ta'mirlash, shu jumladan tom yopish, rejali profilaktik ta'mirlash va boshqa turli ishlarni davom ettirishadi. Ishonamizki, quruvchilarimiz bor tajriba, kuch va imkoniyatlarni safarbar etib, vazifalarini ado etadilar.



x o n a l a r  
mayjud. Za-  
m o n a v i y  
qurilish sa-  
n o a t i n g  
eng yuqori  
talablariga  
javob bera-  
digan shun-  
day korxonalar qatorida "O'zmetkombinat"  
Ajda ham po'lat armatura, aylana, burchak,  
shveller, po'lat sim, shuningdek, issiqlik  
o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish  
jadal rivojlanmoqda. Bundan tashqari,



**Bayramingiz muborak  
bo'lsin, aziz hamkaslar!**

**Ravshan AHMEDOV,  
Qurilish-montaj  
bo'linmasi boshlig'i.**



### "HALOL MEHNATIM BILAN FAXRLANAMAN"

Shokir Saidmurodov 1964-yilda Bekobod tumani da tug'ilgan. 1985-yildan buyon Qurilish-montaj bo'linmasida tom yopuvchi vazifasida mehnat qilib kelmoqda. 38 yillik mehnat faoliyati davomida Rangli metallar, Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar, Ferroqtishmalar ishlab chiqarish sexlari, Navli prokat sexining katanka ishlab chiqarish uchastkasi qurilishlarida faol ishtirok etgan.

- Quruvchilik kasbi mashaqqatli va sharafli kasblardan biridir. Ishga kirgan yillarda biroz qiyonaldim, - deydi tajribali quruvchi. - Lekin mana shunday ahil jamoa bilan birga ishlab, qiyinchiliklarni yengib, tajriba orttirdim. Hozirga kunda Quyuv-prokatlash majmuasida kasbdoshlarim bilan birga kuniga 100 m<sup>3</sup> gacha hajmda beton quyish ishlarini bajaryapmiz. Mana shu kasb bilan halol mehnat qilib ro'zg'or yuritayotganligim bilan faxrlanaman.

### O'Z KASBING USTASI

O'z kasbining fidoiysi deya e'tirof etilayotgan Matluba Mamedova 18 yoshidan buyon Qurilish-montaj bo'linmasining 6-uchastkasida suvoqchi-bo'yoqchi vazifasida ishlab keladi. 24 yillik mehnat faoliyati davomida juda ko'plab ob'ektlarda sidqidildan ishlab, mehnatda jamoadoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

- O'z kasbimni juda yaxshi ko'raman, har bir qilgan ishimdan zavqlanaman. Dastlabki bilim va ko'nikmalarni ustozlarim Rahima Xolbo'yeva, Tanya Katkovalardan olganman. Hozir bir kunda ish sharoitidan kelib chiqqan holda 25-30 m<sup>2</sup> devorni suvoqlash, 50-60 m<sup>2</sup>ni maxsus aralashma bilan tekislash hamda 70-80 m<sup>2</sup> devorni rang berib bo'yash, 35-40 m<sup>2</sup> devorga gulqog'oz yopishtirish ishlarini bemalol bajara olaman, - deydi Matluba opa.

Malakali quruvchi kasbiy mahoratlarini shogirdlari - Jamila Abduxoliquova, Nasiba Shodiyeva, Anya Avdeyevalarga o'rgatib kelmoqda.

Matluba Mamedova o'z kasbiga sadoqati, malakali quruvchi sifatida jamoada hurmat-e'tibor qozongan.

Bugungi kunda Qurilish-montaj bo'linmasida 500 nafardan ziyod kishi ishlaydi. Muhandislar, montajchilar, pardozchilar, suvoqchilar, bo'yoqchilar, betonchilar, yo'l quruvchilar va boshqa ko'plab quruvchi mutaxassisliklarni o'zida jamlagan jamoa kombinatning erishilayotgan yutuqlarga munosib hissasini qo'shamoqda.

Yuqori sifatli qurilish materiallari bino va inshootlarning uzoq umr ko'rishiga asos bo'ladi. Bugungi kunda m a m l a k a t i - mizda sement, g'isht, gipso-karton va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ko'plab kor-

QMBda yangi qurilish texnologiyalari joriy etilgan holda turli markadagi beton, beton va temir-beton buyumlari, "Akfa" deraza va eshiklari, duradgorlik mahsulotlari kabi qurilish materiallari ishlab chiqariladi.

Iste'molchilarning "O'zmetkombinat" AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallari talablari katta. Shu bois kombinatda prokat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish va shu bilan birga zamnaviy, yuqori texnologiyali uskunalardan foydalangan holda yangi turdag'i mahsulotlarni o'zlashtirish asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Har yili avgust oyining ikkinchi yakshanbasida O'zbekiston Respublikasi Qurilish sohasi xodimlari kuni nishonlanadi. Kombinatimiz quruvchilarini, shu sohada faoliyat yuritayotgan barcha hamyurtlarimizni yaqinlashib kelayotgan kasb bayramlari bilan tabriklaymiz. Olib borayotgan buniyodkorlik ishlariga ulkan zafarlar tilaymiz.

**Bayramingiz muborak  
bo'lsin, aziz hamkaslar!**



### YOSH BO'L SADA MALAKALI QURUVCHI

Qurilish-montaj bo'linmasida mehnat qilayotgan yosh, shijoatli va mehnatsevar ishchilardan biri Madamin Inomjonovdir. U 1995-yilda Bekobod tumanida tug'ilgan. 2014-yilda tumandagi kollejni tamomlab, quruvchi mutaxassisligini olgan. So'nggi 5 yildan buyon Qurilish-montaj bo'linmasining 3-uchastkasida betonchi vazifasida ishlab kelmoqda. Kasb sir-asrorlarini ustozlari Yigitali Haydarov va Jahongir Saurovlardan o'rgangan.

- Madamin Inomjonov yosh bo'lishiga qaramasdan o'z ishining ustasiga aylangan. Har bir berilgan topshiriqni o'z vaqtida sifatli bajaradi. Hozirgi kunda mana shunday yosh kadrlarning ko'pligi qurilish-montaj ishlarini tez fursatlarda bajarilishiga olib kelmoqda, - deydi uchastka ustasi Sherzod Usmonaliyev.



## TEMIR YO'LLAR - KOMBINATNING HAYOTBAXSH QON TOMIRLARI



### (Davomi. Boshlanishi 2-sahifada).

2023-yil boshidan beri temiryo'lchilar 5,8 million tonnadan ortiq yuqtashishdi, bu rejaning 108,5 foizini tashkil etdi. Iste'mol-chilarning ko'payishi, yangi yetkazib berish yo'nalishlari ochilayotganini hisobga olib, kombinatning 320,8 ming tonnadan ortiq tayyor mahsulotlari universal vagonlarda jo'natilib, manzillarga yetkazib berildi.

Yuklash va tushirish ishlari hajmi 8,0 ming tonnadan oshdi.

Joriy yilning aprel oyida Temir yo'l xizmati tomonidan kombinatning "Sirdaryo-ikkilamchiqorometall" filialining Boyovut uchastkasidagi ekspluatatsiya qilish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan 380 metr uzunlikdagi kirish temir yo'llari mukammal ta'mirlandi. Temir yo'l montyorlari tomonidan temir yo'l tarmog'i relsleri va mahkamlovchi qismlarini to'liq almashtirish orqali demontaj qilish, yo'l ustki tuzilishining barcha detallarini belgilangan ketma-ketlikda qismlarga ajratish kabi ishlar muvaffaqiyatli bajarildi. Temir yo'lni kapital ta'mirlash jarayonida rels-shpal panjaralari almashtirildi. Sheben yotqizish, yo'lni ko'tarish orqali undagi baland-pastliklar bartaraf etildi. Ko'tarib to'g'rilangan va yangi o'rnatilgan yo'llardagi shpallarning ostuni zichlash, yo'l enini me'yorlash, yog'och shpallarni temir beton turdag'i shpallarga almashtirish hamda strelkali o'tkazgichni ta'mirlash kabi ishlar ham yakuniga yetkazildi.

Mukammal ta'mirlashdan so'ng Boyovut uchastkasidagi kirish temir yo'llarida qora metall parchalari va chiqindilarini tashishda harakat xavfsizligi ta'minlandi.

Zoldir prokati sexida "Pech oralig'in

### BILASIZMI?

O'zbekiston temir yo'llarining umumiy uzunligi qancha?

O'zbekiston Respublikasida jami hududlar kesimida temir yo'llarning foydalilaniladigan uzunligi o'tgan yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 6 118,3 kilometrni tashkil etgan.

Shulardan umumfoydalanadigan temir yo'llarning uzunligi 4 732,8 kilometrni tashkil etgan (umumfoydalanadigan temir yo'llarning ulushi 77,4 foizga teng), deb xabar beradi Davlat statistika qo'mitasi Axborot xizmati.

Hududlar kesimida umumfoydalanadigan temir yo'llarni eng katta qismi Toshkent viloyati (941,2 kilometr yoki temir yo'llarning 15,4 foizi), Qoraqalpog'iston Respublikasi (925,2 kilometr yoki 15,2 foiz) hamda Navoiy viloyati (862,6 kilometr yoki 14,1 foiz) hududiga to'g'ri keladi.

kengaytirish" loyihasi doirasida 170 metr uzunlikdagi temir yo'lning qurilishi yakunlandi. 2023-yil boshidan beri chetdagi tashkilotlarga transport xizmatlarini ko'rsatish hisobiga Temir yo'l xizmati kombinatga 102,1 million so'mdan ortiq foyda keltirdi. Xovos 3-vagon ta'mirlash deposi negizida kom-binatning 15 ta dumpkari mukammal ta'mirlanib, ularning xizmat muddati uzaytirildi.

Kombinat rahbariyati temir yo'l transporting moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratmoqda. 2023-yil investitsiya loyihasi asosida 1200 ot kuchiga ega 2 ta lokomotivni yangilash, temir yo'llarni rekonstruksiya qilish, "Shirin-Zavod" stansiyasining tashqi yo'lida 6,9 kilometr yangi temir yo'l qurilishi, shuningdek, temir yo'l xizmati teplovoz-vagon deposining texnologik asbob-uskunalarini harakatlanuvchi tarkibning uzellarini sinovdan o'tkazish uchun jiozlash rejalashtirilgan.

O'z kasbiga sadoqatli, fidoyi va ilg'or temiryo'lchilar jamoasi vazifalarini chuqur his etgan holda o'zlarining bor bilim, malaka va kuch-g'ayratlarini safarbar etib, zimmalaridagi burchlarini sharaf bilan ado etadilar.

**Hurmatli temiryo'lchilar!**

Sizlarni 6-avgustda nishonlanadigan Temir yo'l transporti xodimlari kuni - kasb bayramimiz bilan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, mehnat faoliyattingizda va shaxsiy hayotingizda yutuq va omadlar, oilalaringizga baxtu saodat, fayzu baraka tilayman.

**Bobir ISHONQULOV,**  
**Yagona logistika markazining**  
**Temir yo'l xizmati boshlig'i.**



Ma'lumot uchun: Rossiya Federasiyasida ushbu ko'rsatkich 124,0 ming km, Qozog'istonda 16,0 ming km, Belarusda 5,5 ming km, Turkmanistonda 3,6 ming km, hamda Qirg'izistonda 0,5 ming km ni tashkil etadi.

# AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHIDA

Metallurqlar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlarining yillik umumi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi - bosh direktori Rashid Pirmatov, Boshqaruv raisining o'rinosi - Moliya direktori Tatyana Budey, Xodimlarni boshqarish departamenti direktori o'rinosi Shahnoza Mirbabayeva, Bosh buxgalter Bahodir Eshonhujayev, Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i Yulduzzon Usmanova, "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi hamda Taftish komissiyasi a'zolari va bir guruh aksiyadorlar ishtirok etishdi.

Yig'ilish davomida kun tartibiga qo'yilgan bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, "O'zmetkombinat" AJ Ijroiya organining 2022-yil yakunlari bo'yicha hisoboti ko'rib chiqildi. Biznes-reja bajarilishi to'g'risidagi hisoboti tasdiqlandi. 2022-yil yakunlari bo'yicha faoliyat samaradorligini baholash mezonlari bajarilishi

to'g'risida Ijroiya organining hisoboti tinglandi. 2022-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha yillik hisobot tasdiqlandi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashining 2022-yil faoliyati natijalari bo'yicha hisoboti ko'rib chiqildi. "O'zmetkombinat" AJning 2022-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha Taftish komissiyasining xulosasi tinglandi. "O'zmetkombinat" AJning 2022-yil yakuni foydasi va zararlarini taqsimlash hamda dividendlar to'lash masalasi

ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, "O'zmetkombinat" AJning yangi tahrirdagi ustavi hamda yangi tahrirdagi tashkil tuzilmasi tasdiqlandi. "KPMG" auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan bitimga o'zgartirish kiritildi. Aksiyadorlar tomonidan uch yil ichida (2019-yil uchun) talab qilib olinmagan dividendlarni jamiyat ixtiyorida qoldirish masalasi ko'rib chiqildi.

"O'zmetkombinat" AJ Taftish komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. 2022-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari ko'rib chiqildi. Shu bilan bir qatorda, "O'zmetkombinat" AJ Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomasi muddati uzaytirildi hamda "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi to'g'risida"gi nizom yangi tahrirda tasdiqlandi.

## BUGUN RANGLI METALLAR SEXIDA DAVR TALABI ASOSIDA



Rangli metallar ishlab chiqarish sexi jamoasi davr talabiga moslashib, jahon andozalari talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqaryapti. Shuning bilan birga sexda har bir oydag'i reja-topshiriqlar ortig'i bilan bajarilib kelinmoqda.

Mehnat jamoasi a'zolarining aksariyatini o'z ishlarining ustasi. Shu sababli ham jamaa mehnat muvaffaqiyatlariga erishib kelmoqda.

Joriy yilning iyun oyida sex ishchi-xodimlari 260 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirgan edi. Amalda jamaa 80,3 tonna latun, 206,188 tonna mis, jami 286,488 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarib, belgilangan rejani 110 foizga bajardi.

Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning 80 foizi Qirg'iziston, Rossiya va Turkiya davlatlariga yuklab jo'natildi. Eksportchilar soni ko'payib borayotganligi bu sexda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati yuqoriligidan darak beradi.



**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy yil 5-iyuldag'i tegishli farmoyishiga muvofiq, 2023-yil 10-iyulidan "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun" tadbirlari amalga oshirilmoqda. 10-avgust kunigacha davom etadigan "Dolzarb 30 kun"da faol ishtirok etayotgan "O'zmetkombinat" Ajda ham yong'in xavfsizligiga e'tiborni har qachongidan ham oshirish uchun chora-tadbirlar rejasidagi asosida ishlar tashkil etilgan.**

## NAZORAT YANADA KUCHAYTIRILDI

Tadbir doirasida kombinatga tegishli bo'lgan bino va inshootlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rilmoxda. Jumladan "Dolzarb 30 kun"da ob'ektlarda o't o'chirgichlarning qo'shimcha zahirasini yaratish, barcha elektr ta'minoti tizimini muvofiq holga keltirish, elektr



sug'orish, ob'ektlarda yong'inni o'chirish uchun yetarli suv zahirasini tayyorlash, evakuatsiya yo'llarining ochiqligini ta'minlash kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kombinat ishchi-xizmatchilariga yong'in sodir bo'lganda ular tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar tu-shuntirilayapti. Sex va uchastkalarda keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlar, jumladan ko'rgazmali amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.

### Hurmatli metallurqlar!

**Yong'in xavfsizligi qoidalariga e'tiborli bo'ling. O'zingizni, yaqinlaringizni baxtsiz hodisalardan ehtiyoq qiling!**

## HARAKAT QOIDALARINI HAMMA BILISHI SHART

Yong'in chiqqanda qutqaruv bo'linmalari yetib kelguniga qadar odamlarni qutqarish bo'yicha harakatlarning to'g'ri tashkil etilishini barcha bilishi zarur. Har qanday favqulodda vaziyatlarda xodimlarning sarosimaga tushishlari va tartibsiz xatti-harakatlari boshqa salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Afsuski, ko'pchilikda qorong'ilikda to'g'ri fikr yuritish emas, balki o'zini ehtiyoq qilish hissi ishga tushadi. Natijada sarosima oqibatida tiqilinch, tartibsizlik yuzaga keladi. Yong'in paytida alanga dastlabki yonish jarayonidagina xonani kuchli yoritishi mumkin. Biroq birozdan so'ng atrofqa quyuq va qora tutuntarqala boshlaydi atrofni qorong'ilik egallaydi. Tutun tarkibidagi toksinli moddalar bilangina emas, balki ko'rish darajasini susaytirishi bilan ham xavflidir. Bu odamlarni evakuatsiya qilishni qiyinlashtiradi, ba'zan esa bunga deyarli imkon qoldirmaydi.

Bunday vaziyatlarda odam turgan joyini aniqlash, vaziyatni to'g'ri baholay olish qobilyatini yo'qotadi. Bunda odamlarning ishonuvchanligi keskin ortadi, berilayotgan buyruqlar tahlil qilinmasdan qabul qilinadi, odamlarning harakatlari g'ayri ixtiyoriy ko'rinish oladi, taqlid qilishga moyillik namoyon bo'ladi. Shunday paytlarda ob'ektlarda, uyldarda odamlarni evakuatsiya qilishni tashkil etish juda muhim.

### FAUQULODDA VAZIYATLAR

Yong'in vaqtida, shuningdek, buning aksi vahima bosish, sarosimaga tushish natijasida ruhiy keskin o'zgarish sodir bo'ladi va ular dong qotish (harakatsizlik) shaklida namoyon bo'ladi.

Bunda odam buyruqlarni bajarishga deyarli qodir bo'lmaydi. Bunday holat aksariyat hollarda bolalar, o'smirlar, ayollar va keksa yoshlarda kuzatiladi. Shu tufayli yong'in vaqtida ular ko'pincha xonada qoladilar. Bunday vaziyatlarda evakuatsiya qilishda ularni ko'tarib olib chiqishga to'g'ri keladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, bunday insonlarning dong qotishi (harakatsizlik) holatlarida boshqaruvchi bo'limasa ularni vahima bosidi, sarosimaga tushishadi evakuatsiya yo'llarida odamlarning harakatlanishiga xalaqit qilishadi. Shunday ekan ularni qutqarishda bir necha kishi ishtirok etishi shart.

Fuqarolar harakat qoidalarini qanchalik to'g'ri tushunsalar yong'inlar oqibatida yetadigan zararlar eng kam darajada bo'ladi.

**Bobur SULKONOV, "O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida YOXTEB Yong'inlar profilaktikasi va nazorati bo'linmasi inspektori, leytenant.**

## YOZGI OROMGOH - ENG ZAVQLI DARGOH

## ULKAN BOYLIGIMIZ

BOLALAR HAR BIR MAMILAKATNING ULKAN BOYLIGIDIR. ULARGA G'AMXO'RLIK QILISH, ARDOQLASH, SOG'LOM O'STIRISH, TURLI XURUJLARDAN ASRASH VA TA'LIM-TARBIYA BERISH ESA DUNYONING BARCHA MAMILAKATLARI DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN HISOBLANADI.

ZERO BOLALARGA G'AMXO'RLIK QILISH, ULARNI DOIMO QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNING HUQUQLARINI HIMoya QILISH, RIVOJLANISHI UCHUN ZARUR SHART-SHAROITLARNI YARATISH – ERTANGI KUNGA QO'YILGAN MUSTAHKAM POYDEVORDIR.

Bolajonlar uchun yoz faslining gashti o'zgacha. Yozgi ta'til davomida bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarini egallashlari, do'stlar orttirishlari, maroqli dam olishlarini tashkillashtirish maqsadida metallurglar farzandlari uchun qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

"Metallurg" professional futbol klubiga qarashli akademiyaning "Zamonaviy maktabi" tasarrufidagi "SOHIL EVOLUTION" oromgohi bugun bolalar bilan gavjum. Oromgohda bolajonlar maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Yoz faslida besh mavsumda faoliyat ko'rsatadigan bu oromgohning bir mavsumida dam olish 12 kundan iborat. Har bir mavsumda oromgoh 150 nafar o'g'il va qizni o'z bag'rige qabul qilib oladi. Mavsum yakuniga qadar 750 nafar bola dam olib sog'lomlashtirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur dargohda bolajonlarning

maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Yozgi oromgohlar shahar chekkasida, ekologik toza hududda joylashgani bolalar salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu muassasa dam olish maskani vazifasini o'tasada, u yerda o'tkaziladigan tadbirlar, ta'limgarbiya jarayonlari yosh avlodning dunyoqarashini boyitishga, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga, ularni har tomonlama kamol topishiga ko'maklashuvchi tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan unda madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, milliy o'yinlar, viktorinalar, turli ko'rik-tanlovlar bolalarning ta'til davrini maroqli tashkil etish uchun muntazam ravishda o'tkaziladi. Oromgohda bolajonlar uchun har kuni erta tongdan badan tarbiya mashqlari o'tkaziladi. Shuningdek, ular badiiy ijod bilan shug'ullanadilar, miriqib futbol o'yashadi, suzish havzalarida



suzishadi, shaxmat-shashka o'yaydilar. Bundan tashqari ingliz tili darslarida faol ishtirop etishadi. Robototexnika va kompyuter texnologiyalari to'garagida shug'ullanadilar. Kutubxonada qiziqarli kitoblar o'qib o'zlarining savodxonligini oshiradilar. Kun davomida bolajonlar besh mahal



mazkur oromgoh bolajonlarning sevimli maskaniga aylandi. Shahrimizning so'lim, soya-salqin go'shasida kechuvchi ta'til davri bolajonlarda unutilmas taassurotlar goldirishi shubhasiz.

**Sheroz SHUKURALIYEV.**



## PENSIYAGA KUZATILDI

Po'lat eritish vazifasida ishslash sharafi shu bilan birgalikda mashaqqatlidir. Kombinatimizning eng asosiy sexi bo'lgan EPESda po'lat erituvchilik qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu jamoada mas'uliyatlari va og'ir mehnatdan cho'chimaydigan, berilgan vazifalarni matonat bilan bajaradigan irodali kishilar mehnat qilishadi.



Ana shunday xislatlarga ega bo'lgan metallurlarning bu sexda uzoq yillar po'lat erituvchi bo'lib ishslashining o'zi bir qahramonlik. Bundaylar vaqt kelganda sharaf bilan pensiya ga kuzatiladi.

Yaqinda Elektrda po'lat eritish sexida 35 yil po'lat erituvchi vazifasida samarali mehnat qilib kelgan, o'z kasbining fidoyisi, yoshlar murabbysi Bahrom Beknazarovni kasbdoshlari, Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan birgalikda faxriylar safiga munosib kuzatishdi.

Bahrom Beknazarov bilan birgalikda mehnat qilgan hamkasbleri uning ishda erishgan yutuqlari, yoshlarga kasb sirlarini o'rgatish borasidagi ustozlik xislatlari to'g'risida ijobiy fikrlarini bildirgan bo'lsalar, uning o'zi elektrda po'lat erituvchilar jamoasida uzoq yillar ajoyib hamkasbleri bilan ishlaganidan xursandligini aytib o'tdi.

An'anaga ko'ra pensiyaga kuzatilgan Bahrom Beknazarovga esdalik sovg'alari topshirildi.



## ZUHRIDDIN DO'SMATOV FAXRIY DONOR

Har kuni dunyo bo'yicha minglab insonlar donor qoniga ehtiyoj sezadi. Donorlik – odamlarga yaxshilik qilishning eng oddiy ko'rinishi bo'lib, ushbu beg'araz, ko'ngilli yordam qonga ehtiyoji bor insonlar uchun haqiqiy ko'makdir.

Kombinatimizning Elektrda po'lat eritish sexida Elektrda po'lat erituvchi yordamchisi vazifasida mehnat qiluvchi Zuhriddin Do'smatov ham mana shunday ko'ngilli donorlardan biri hisoblanadi. U 32 yildan buyon muntazam ravishda qon topshirib kelmoqda.

14-iyun – Xalqaro donorlar kuni munosabati bilan Zuhriddin Do'smatov "O'zbekiston Respublikasi faxriy donori" ko'krak nishoni, Akademik S. M. Bahramov nomidagi O'zbekiston Respublikasi "Anemiya va leykemiya" xayriya jamoat fondi tomonidan "Faxriy yorliq" va esdalik sovg'alari hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika qon quyish markazi tomonidan "Tashakkurnoma" bilan taqdirlandi.

Oramizda ana shunday mehrli va qalbi ezgu likka to'la insonlar bor ekan jamiyatimiz doimo salomat bo'ladi.

## OSHXONA MUKAMMAL TA'MIRLANDI

"O'zmetkombinat" Ajda yana bir oshxona to'liq mukammal ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Shinam va barcha qulayliklarga ega oshxonada jihozlar ham yuz foizga yangilangan.

Endilikda Temir yo'l xizmati huduvida joylashgan bu 4-oshxona metallurglarga sifatli xizmat ko'rsatmoqda.



120 o'ringa mo'ljallangan ushbu oshxonada yangicha uslub va ko'rinishdagi taomlar tayyorlanmoqda.

Bu g'amxo'rliklar metallurglarning kayfiyatini ko'tarish bilan bir qatorda osh-pazlarni ham zamon bilan hamnafas bo'lib faoliyat ko'rsatishga undamoqda.

“O’ZMETKOMBINAT” AJNING 80 YILLIGI OLDIDAN

## SINOV MUVAFFAQIYATLI O’TDI

EPESNING ISHGA TUSHGANLIGIGA 45 YIL TO’LMOQDA

**BUNDAN 45 YIL MUQADDAM - 1978-YILNING  
17-AVGUSTIDA EPESNING YILIGA 250 MING  
TONNA PO’LAT ERITISH QUVVATIGA EGA  
BO’LGAN BIRINCHI NAVBATI ISHGA TUSHIRILDI.  
BU SANA ELEKTRDA PO’LAT ERITISH SEXINING  
FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN KUNI SIFATIDA  
TARIXGA KIRGAN.**



1975-yili 22-avgust kuni Elektrda po’lat eritish sexining poydevoriga birinchi beton quyilishi tantanalarida qatnashish uchun o’sha davrdagi Respublika rahbari Sharof Rashidov shaxsan o’zi tashrif buyurdi. Bunda keljak avlodlarga xat maxsus po’latdan yasalgan stakanga joylashtirilib, poydevorning orasiga qo’yildi. Kimlardir cho’ntagidan tangalar olib stakanga tashladi. Sharof Rashidov ham cho’ntagidan tanga olib, omonat yo’lakchadan pastga tushib, tangalarni stakanga joylab, tayyorlangan betondan bir lopatka olib poydevorga tashladi.

Bu gigant inshootning qurilish davrida va ishga tushgan paytlarida dastlabki quvvatlarini o’zlashtirish davrida ham Sharof Rashidov bir

necha marta korxonamizga kelib, qurilishning borishi, quvvatlarni o’zlashtirish jarayonlari bilan tanishib ketar edilar. Yechilmagan muammolarni tez hal etishga yordamlashar edilar.

1978-yilning boshlarida EPESda birinchi pechning ishlashi sinovdan o’tkazildi. Bu haqda “Pech” nimstansiyasining faxriy ishchilari shunday xotirlaydi. Pechga 35 kv. kuchlanish berish uchun hamma narsa tayyor edi, faqat kalit buralsa kifoya. “Pech” nimstansiyasida o’sha paytdagi zavod bosh energetigi o’rnbosari I. Rahmatov, “PGV-1 va “4” nimstansiyasi boshlig’i V. Xvan, katta usta A. Abduvositov va “Pech” nimstansiyasi boshlig’i E. Belyalov buyruqni kutib o’tirardi.



Kechki soat 2 larda “Elektr pechiga 35 kv. kuchlanish uzatishingizni so’raymiz” deya telefon orqali xabar qilishdi. Uni Rahmatov tasdiqlab: “Abdug’affor boshla!” deb buyruq berdi. Abduvositov boshqaruv kaltini burashi bilan pechga kuchlanish uzatildi. Po’lat eritish qanday borayotganligini ular asboblar orqali kuzatib turishdi. Hamma haya-jonda edi. Chunki elektr quvvati vaqtinchalik sxema asosida kabellar orqali berilayotgandi. Avvallari 35 kv. uzatuvchi kabellarni bekobodlik mutaxassislar hech qachon ko’r-magandi. Korxonada eng ko’p kuchlanishni o’tkazadigan kabel bor yo’g’i 10 ming voltga mo’ljallangan edi. 35 ming hazilakam gap emasdi. Buning ustiga har bir fazada shunday 4 ta kabel bor. Bundan bir kun oldin esa qattiq shamol nimstansiyani elektr bilan ta’minlaydigan yuqori kuchlanishli liniyaning sim tutqichini uzib yuborgandi. Uni ulash uchun yuqoriga ko’tarish moslamasi bo’lgan avtomobil chaqirildi. Bu ishni bajarishga ko’ngillilardan biri bulib usta Abduvositov va montyor Andrey Olgeyzer kirishdi. Yuqorida ta’mirlash ishlarini olib borish ancha xavfli edi. Chunki qattiq shamol ularni mashi-

na ko’targichi bilan qo’shib ag’darib yuborishi mumkin edi.

Bu joyga rahbarlar-korxona direktori Sh. Xayrullaev, shahar rahbari A. Ibragimov, vazir o’rnbosari Yu. Chernovlar ham yetib kelgandi. Ular ham mashinaning ko’tarish moslamasi ustidagi kajavaga bog’langan arqonlarni ushlab to’rt tarafdan tortib turishdi. E. Belyalov haydovchiga buyruq berib turdi. Ancha kulguli holat edi. Biroq u vaqtida kulishning o’rni emasdi. Tepada ishlagan dovyuraklarga rahmat. Ular hamma ishni bajarib, katta yordam berishdi.

Elektr pechiga 35 kv. kuchlanish berilganidan so’ng u muvaffaqiyatli ravishda sinovdan o’tdi. Bundan yanada ruhlangan quruvchilar va metallurqlar qurilish sur’atini oshirib borib 1978-yilning 17-avgustida EPESning yiliga 250 ming tonna po’lat eritish quvvatiga ega bo’lgan birinchi navbatini ishga tushurishga muvaffaq bo’ldilar. Birinchi raqamli elektr pechi tayyorlanayotgan mahsulotni uzlusiz quyish qurilmasi, nimstansiya va kislород-siquv sexi majmuasi bilan ishga tushirildi.

Diyor ZULFIQOROV.

## UY-JOY UCHUN SUBSIDIYA OLİSH TARTIBI

Ipoteka kreditlari asosida uy-joy qurish va rekonstruksiya qilish uchun boshlang’ich badal yoki kredit foiz to’lovlarining bir qismini qoplab berish maqsadida davlat budgetidan qaytarib berilmaydigan mablag’lar – subsidiyalar kimlarga beriladi? Subsidiyani olish tartibi qanday?

Subsidiya – ipoteka kreditlari asosida kvartira sotib olish uchun boshlang’ich badal va kredit foizining bir qismini yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun kredit foizining bir qismini qoplash maqsadida Davlat budgetidan fuqaro uchun bankda uning nomiga ochilgan tegishli hisobvaraqa o’tkazilgan mablag’ hisoblanadi.

Ariza beruvchi – ipoteka kreditlari bo’yicha boshlang’ich badal va foiz xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiya olish maqsadida ariza bilan murojaat qiluvchi 18 yoshdan 60 yoshgacha bo’lgan O’zbekiston Respublikasi fuqarosisidir. Ariza beruvchi ipoteka kreditlari bo’yicha subsidiya olish uchun istalgan tuman (shahar) davlat xizmatlari markaziga o’zi kelib murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat

xizmatlari portalida davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro’yxatdan o’tadi.

O’zi kelib murojaat etganda, Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YAIDXP orqali murojaat qilinganda esa ariza beruvchi mustaqil ravishda Nizomga muvofiq davlat xizmatidan foydalanish uchun anketa-arizani elektron tarzda to’ldiradi.

Quyidagi hollarda ariza beruvchiga subsidiya ajratish rad etiladi:

a) taqdim etilgan arizada ko’rsatilgan ma’lumotlar ijtimoiy mezonlarga mos kelmaganda;

b) taqdim etilgan ma’lumotlar noto’g’ri yoki soxta bo’lganda;

g) ilgari shahar va qishloq joylarda arzon uy-joy qurish dasturlari doirasida imtiyozli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvar-tira yoki yakka tartibdagi uy-joy

hamda subsidiya olgan (avval olingan uy-joy boshqa shaxsga begonalashtirib yuborilgan taqdirda ham) oila a’zolari (eri, xotini) takroriy murojaat etganda;

d) joriy yilda hudud uchun ajratiladigan subsidiya soni tugaganda;

ye) ariza beruvchi va/yoki oila ning o’rtacha oylik daromadi;

Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlarda – MHTEKM (Mehnatga haq to’lashning eng kam miqdori) ning 2,7 baravaridan kam va 8,0 baravaridan yuqori;

Toshkent shahrida – MHTEKMning 2,7 baravardan kam va 9,2 baravaridan yuqori bo’lganda.

Shuningdek, yangi tartibga alohida e’tibor qaratish zarur. Ya’ni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi PF-51-son Farmoniga asosan 2023-yil 1-maydan boshlab banklar-

ga rasmiy daromadga ega bo’lmagan shaxslarga ipoteka kreditini ajratishda ularning to’lov qobiliyatini aniqlashning muqobil usullaridan foydalanimshga, shu jumladan qarz oluvchilarninig bank kartasi aylanmasi, ijara, communal va qonunchilik hujjalariда taqiqlanmagan boshqa xarajatlarni inobatga oluvchi skoring tizimini joriy qilishga ruxsat etilishi belgilangan. Lekin bu rasmiy daromadga ega bo’lmagan shaxslarga subsidiya ajratiladi degani emas.

Bundan tashqari, endilikda 2023-yil uchun ipoteka kreditlari bo’yicha subsidiyalar ajratishga doir arizalar tasdiqlangan parametrlar doirasida 2023-yil 1-maydan 2023-yil 1-dekabrga qadar qabul qilinadi hamda uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun olinadigan ipoteka kreditlari bo’yicha berilgan subsidiya taqdim etish to’g’risida xabarnomalarning amal qilish muddati 4 oy etib belgilanadi.

Murodqosim NURMATOV,  
Bekobod shahar adliya bo’limi  
Davlat xizmatlari markazi  
direktori.

## KORRUPSIYA - TARAQQIYOT YO'LIGA TO'SIQ

**"MOLLARINGIZNI BOTIL YO'L BILAN YEMANG!"**

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institutlarga putur yetadi. U qonun ustuvorligiga ham jiddiy ziyon yetkazadi.

Shu bilan birga, korrupsianing ta'siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo'qoladi. Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bizning davlatimiz korrupsianing oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Mamlakatimizda korrupsiyani yengish, amaldorlarning halol ishlashini ta'minlash, bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqqa va tadbirkorlarga xalaqit berayotgan to'siqlarni bartaraf etish maqsadida bir qator qonun va qonunosti hujjat-

lari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni ham bunga misol bo'la-di. Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda m a m l a k a t i m i z d a jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi k u r a s h n i n g barcha huquqiy asoslari yaratilgan.

Faqat bu jarayonda yurtdoshlarmizdan hushyorlik va mas'uliyat talab etiladi.

Agar qonun hayotda ishlamasasi, uning oddiy qog'ozdan farqi qolmaydi. Shunday ekan, "Korrupsiya haqida qonun bor, endi hammasi iziga tushadi", deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutulish haqida hammamiz o'yashimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak. Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshla-

nadi. Shifokordan yaxshiroq maslahat olish, o'qishga, ishga kirishda, ishbilarmonlar korxonalar bilan hamkorlik qilishda imtiyozlarga ega bo'lishda va shu kabi vaziyatlarda barcha o'zini munosib, halol tutishi lozim bo'ladi.

Muqaddas Islom dinimizda ham korrupsiya qattiq qoralangan. Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiplanadi: "Bir-birlarin gizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismi yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188). Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hukmda pora beruvchini va pora oluvchini la'natladilar", deyilgan.

Korrupsiya - taraqqiyot kushandas, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarning emas, barchanering ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

**Hasanboy SHOKIROV.**

**OCHIQ SAYYOR SUD MAJLISIDAN****"BUZOQNING YUGURGANI SOMONXONAGACHA"**

Joriy yil 29-mart kuni 31 yoshli Boyqo'zi Davronboyev (ism-shariflar o'zgartirilgan) tanishining yuk avtomashinasini buziganligi sababli unga yordam berish uchun "O'zmetkombinat" AJga boradi. U yerdan qaytayotgan vaqtida armatura ortilgan qarovsiz turgan yuk avtomashinasiga ko'zi tushadi. Vaziyatni o'rganib bu mashinadagi yuqlarning bir qismini o'zlashtirmoqchi bo'ladi. U birovning mulkini o'ziniki qilishdan aslo or qilmay armaturalarni talon-taloj qilishga kirishadi va "RUN XIANC" MCHJga tegishli bo'lgan yuk avtomashinasida umumiy qiymati 7 500 000 so'qlik armaturani talon-toroj qiladi.

Biroq "Buzoqning yugurgani somonxonagacha" deganlaridek bu mahsulotlar unga nasib qilmadi. Qilmishi fosh bo'lgan B. Davronboyev qonun oldida javob berishga majbur bo'ldi. U MCHJga yetkazilgan moddiy zararni o'z ixtiyori bilan to'liq qopladи.

2023-yil may oyining 23-kunida, jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi ochiq sud majlisida bu ma'muriy ishni ko'rib chiqdi. Sud, huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda uning shaxsini, yoshini, oilaviy sharoitini va moddiy ahvolini, aybiga iqrorigini, sodir etilgan huquqbazarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini hisobga oldi. Jabrlanuvchi - MCHJning unga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligini inobatga olib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jazo turini qo'llashni lozim deb topdik. Unga O'zbekiston Respublikasi MJKning 61-moddasi 1-qismi bilan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima jazosi qo'llanildi.

Shuni aslo unutmaslik kerakki, to'g'ri yo'lni tanlash uchun hammada imkon bo'ladi. Boyqo'zi xatolarini anglab yetadi, hayotiy qadriyatlarini to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, degan umiddamiz.

**Xurshid XALIKOV,**

**Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi raisi.**



Davlat, xalq multiga "ko'z olaytirish" eng yomon illatlardan hisoblanadi. Bunday ishga qo'l urganlar ko'pchilikning nazaridan qoladi. Hatto yaqinlari ham undaylardan o'zlarini chetga oladilar. Ayniqa, birga ishlaydiganlar ham ularga shubhalanib qarashadi. Zero undaylar o'z qilmishlari bilan ishonchni yo'qotadilar.

**ISHONCHNI YO'QOTMANG!**

Ana shunday o'zaro ishonchni yo'qotganlar "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoalarida ham uchrab turadi. May oyining 25-kuni jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi Boymurod Xursanov (ism, familiyasi o'zgartirilgan)ga taalluqli ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Bu huquqbuzar joriy yil mart oyida kiyimlari solingen yelim paket ichida 4 juft, umumiyo bahosi 248 400 so'qlik qo'lqoplarni yashirin ravishda kombinatdan olib chiqmoqchi bo'lgan. Biroq kombinatni qo'riqlovchi harbiy qism xizmatchilari tomonidan ushlangan.

Ochiq sud majlisida B. Xursanov aybiga to'liq iqror bo'ldi. U qo'lqoplarni uy ishlarida ishlatish uchun olganligini,



gilgan ishidan pushaymonligini bildirdi. Bu holat boshqa takrorlanmasligini, kechirim so'rashini ta'kidlab, jazo tayinlashda yengillik berishni so'radi.

Huquqbuzarga jazo tayinlashda sud uning qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini, oilaviy va moddiy sharoiti og'irligini javobgarlikni yengillashtiruvchi holat, uning harakatlarida og'irlashtiruvchi holatlar yo'q deb hisobladi.

Sud qarori bilan unga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solindi.

Ba'zi kimsalar o'ylanmay qilingan ishlari bilan uyatga qolishadi. Biroq bu voqealar ular uchun izsiz ketmaydi. Shunday holatlar ular uchun ham, boshqalar uchun ham ibrat bo'lib qoladi.

**QILMISH-QIDIRMISH**

9-iyun kuni ochiq sud majlisida huquqbuzar Ozodbek Sanginovga nisbatan ma'muriy ish ko'rib chiqildi. U 2023-yil 23-aprel kuni "O'zmetkombinat" AJga qarashli umumiyo qiymati 140 000 so'qlik 4 dona po'lat(truba) mahsulotlarini talon-toroj qilmoqchi bo'lgan. O'z vaqtida talonchi harbiy qism xizmatchilari tomonidan ushlangan. Daliliy ashyo tariqasida olingan po'lat mahsulotlari "O'zmetkombinat" AJga qaytarilib topshirilgan.

Bekobod shahar sudi binosida bo'lib o'tgan sud majlisi O. Sanginovning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi MJKning 61-moddasi 1-qismi bilan to'g'ri malakalangan deb hisobladi.

Sud, huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda barcha jihatlarni, shu jumladan jabrlanuvchining unga nisbatan hech qanday da'vosi yo'qligini inobatga olib, O. Sanginovga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima jazosi tayinladi.

**Farhod ZOKIROV, Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sudyasi.**

## QO'SHIMCHA TA'TIL TURLARI BIR NECHTA BO'LSA ULAR QO'SHILADIMI?

Yangi mehnat kodeksida ish stagi ko'plarga hamda yosh farzandlari bo'lgan ota-onalarga qo'shimcha ta'tillar berilishi belgilangan? Bu ta'tillarni oluvchi xodimlar ikkalasini ham olishga mos kelsa ular qo'shiladimi yoki faqat bittasi beriladimi?

K. Qo'shmonova.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 220-moddasiga asosan bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish stagi uchun ham qo'shimcha ta'tillar beriladi. Xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalender kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalender kundan ko'p bo'lмаган har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Mehnat kodeksining 401-moddasiga asosan o'n ikki yoshga to'lмаган ikki va undan ortiq bolaning yoki o'n olti yoshga to'lмаган nogironligi bo'lgan bolaning ota-onasidan biriga (ota-ona



o'rnnini bosuvchi shaxsga) har yili davomiyligi kamida to'rt kalender kun bo'lgan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi.

Endi qarang! Bu ta'tillarni oluvchi xodimlar yuqoridagi ta'til turlarining bir nechtasiga mos kelsa ularning barchasi qo'shiladi. Masalan, korxonada xodimning 12 yoshgacha to'lмаган 2 farzandi bo'lib u korxonada 10 yildan buyon ishlayotgan bo'lsa, unga Mehnat kodeksining 401-moddasiga asosan 4 kun va 220-moddasiga asosan 4 kun qo'shimcha haq to'lanadigan ta'tillar qo'shib hisoblanadi.

Barcha hollarda qonunchilik bilan belgilangan ta'tillarni jamlashda ularning davomiyligi bir ish yili uchun ellik olti kalender kundan oshib ketishi mumkin emas.

## UCH ISH KUNIDAN KECHIKTIRMAY BERILADI

Kombinatdan ish bilan bog'liq hujjatlarni olsam bo'ladimi? Buning uchun nima qilish kerak va qancha muddatda ma'lumotnomalarini olish mumkin?

Sh. Sardorov.



O'zingizga taalluqli hujjatlarni bemalol olsangiz bo'ladi. Buning uchun yozma ravishda ariza berasiz. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 117-moddasiga binoan xodimning yozma arizasiga ko'ra ish beruvchi ariza berilgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xodimga ish bilan bog'liq hujjatlarni (ishga qabul qilish to'g'risidagi, boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruqlarning ko'chirma nusxalarini, mehnat daftarchasidan yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmalarni, ish haqi to'g'risidagi, hisoblangan hamda xodim tomonidan haqiqatan to'langan soliqlar va yig'imlar haqidagi, mazkur ish beruvchida ishlash davri to'g'risidagi ma'lumotnomalarini va boshqalarini) berishi shart.

Mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda xodimga mehnat daftarchasini yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma berish, shuningdek xodimga mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruqning ko'chirma nusxasini berish ushu Kodeksning 171-moddasida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Ish bilan bog'liq hujjatlarning ko'chirma nusxalari tashkilot rahbarining yoki boshqa vakolatli shaxsning imzosi, shuningdek muhri (u mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Ish bilan bog'liq hujjatlar va ularning ko'chirma nusxalari xodimga bepul beriladi.



## 660 000 SO'M JARIMA TO'LASHADI

Ayrim shaxslar o'z uylari yonida avtomobil tezligini sun'iy pasaytirish maqsadida ravon yo'llar ustiga sun'iy to'siqlar ("lejachiy politseyskiy") o'rnatishmoqda. Buning uchun qonunlarimizda javobgarlik belgilanganmi?

R. G'ulomov.

Haqiqatan ham ayrimlar asosan bolalari xavfsizligini o'ylab yo'llar ustiga sun'iy to'siqlar o'rnatishganligini hammamiz ko'p bor ko'rganmiz. Ayrim holatlarda yo'lga shunday to'siq qo'yiladiki, hatto velosipedchilar, piyodalar harakatlanishida ham qiyinchilik tug'iladi. Kunduzi-ku mayli, bir amallab bu to'siqlarni chetlab o'tsa bo'lar, ammo tunda bu to'siqni aylanib o'tish imkonsiz. Avtomobillar bu to'siqqa urilganida, albatta, zararlanadi. Piyoda ham qoqilib, yiqilib biror yerini jiddiy shikastlashi mumkin. Albatta bunday holatlar uchun qonunchilik hujjatlarida javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari"ga muvofiq tegishli vakolatga ega bo'lmay yo'l qoplamarini buzish, o'zgartirish, yo'l belgilarini o'zboshimchalik bilan o'rnatish va olib tashlash mumkin emas.

O'zboshimchalik bilan "Lejachiy politseyskiy" - sun'iy harakat cheklovchi qoplama o'rnatgan fuqarolar 660 000 so'm jarimaga tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 147-moddasida bu haqda belgilangan. Unga ko'ra yo'llarga, temir yo'ldan o'tish joylariga, yo'l harakatini tartibga soluvchi boshqa inshootlar yoki texnik vositalarga shikast yetkazish, shuningdek yo'l harakatiga qasddan, shu jumladan yo'l qoplamasini ifloslantirish yo'li bilan xalal berish, xuddi shuningdek, avtomobil yo'llarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notejisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnomalarda talablarini bajarmaslik, shuningdek yo'llarni saqlash qoidalari buzganlik uchun jarima belgilangan. Buning uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida, mansabdar shaxslarga esa - o'n baravari miqdorida jarima solinadi.

## HISOBLAGICH KIMNING HISOBIDAN XARID QILINADI?

Tabiiy gaz, elektrga ularish uchun yangi iste'molchilarga gaz hisoblagich bepulmi yoki pullikmi?

F. Sahobiddinov.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi "Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 22-son qarorida bu savolga to'liq javob berilgan. Ushbu qarorning 2-bandiga ko'ra maishiy iste'molchilarga elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'molini hisobga olish zamonaviy uskunalarini xarid qilish, o'rnatish, ro'yxatdan o'tkazish, davriy davlat qiyoslovi va plom-

balash tegishli ravishda hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va gaz ta'minoti tashkilotlari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, maishiy iste'molchilarning elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'molini hisobga olish uskunalarining davriy davlat qiyoslovidan o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini tashkil qilish bo'yicha javobgarlik tegishli ravishda hududiy elektr tarmoqlari korxonalari va gaz ta'minoti tashkilotlariga yuklatiladi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

## SOG'LOM TURMUSH TARZI – FAROVON HAYOT ASOSI

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko'rishning garovi sog'gom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o'z sog'lig'imizni o'yashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko'plab asoratlari xastaliklarning oldini olgan bo'lamiz.

### BARCHA UCHUN BIRDEK MUHIM

Sog'gom turmush tarzi keng ma'noli tushuncha bo'lib, u unumli mehnat, faol damolish, badantarbiya va sport bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirish, shahsiy gigienaga rioya qilish, oqilona ovqatlanish, zararli odatlardan o'zini tiyish, har yili shifokor ko'riganidan o'tib turish va shu kabi boshqa ko'plab tarkibiy qismlardan iboratdir.

Har bir kishi sog'gom turmush tarzini shakllantirishning juda oddiy uslubini bilib olishi lozim. Eng avvalo, o'zingizdagagi zararli odatlardan qutulishga harakat qiling. Buning uchun ularning zarari va oqibatini har doim tasavvur qiling hamda tanqidiy baholab boring, noyo'ya odatlardan qutulish uslublarini qo'llang.

Ovqatlanishda me'yoriylik, xilma-xillikka odat qiling. Tana og'irligi me'yorida bo'lishi ga erishing. Ortiqcha va rejimsiz, pala-partish ovqatlanishga chek qo'ying, yeguliklar va ularning tarkibiy qismlari haqida tushuncha hosil qilib, ularga rioya etishga intiling.

Jismoniy faol bo'ling. Buning uchun birinchi galda bo'g'imgilarni harakatga keltiruvchi mashqlar majmuini belgilang. Uni uy sharoitida bajariladigan mashqlardan boshlash mumkin. Ertalab turib sayr qilish, yurish, yugurishga odatlarning. Kundalik harakat dasturingiz oz bo'lsa ham doimiy bajariladigan mashq'ulotlardan iborat bo'lsin.

Kun tartibini to'g'ri rejalahtiring. Har kuni erta uyquga yotib, erta turishni odatga aylantiring.

O'zaro muomala va munosabatlar da izzat-hurmat, axloq, odob me'yollariga, jamiyat qonunlariga rioya qiling. Ruhiy salomatlikni asrang. Oilaviy munosabatlar ham o'zaro munosabatlarning davomi.

Ozodalikni odat qiling. Tozalik masalalarida bilim va malakangizni

mustahkamlab boring, shaxsiy gigiena qoidalariiga – qo'l tozaligi, og'iz bo'shlig'i gigienasi, soch gigienasi, teri gigienasi qoidalariiga rioya qilish sog'gom hayot kechirishning asosiy omilidir.

Ehtiyyotkorlik kundalik turmushingizning asosiy talabi bo'lsin. Har bir texnika va mexa nizmlardan foydalanishda, biror bir ish, hatto biror gapni gapirishdan oldin uning oqibatlarini haqida obdon o'ylab ko'ring.

Shifokorlar huzurida bo'lib, yilda kamida 1 marotaba profilaktik tibbiy ko'riklardan o'ting. Chunki kasallikni davolashdan ko'ra, uni oldini olish osonroq va muhimroqdir.

Salbiy ruhiy holatlar ko'pincha xastaliklarni, jumladan, qon bosimi, nevroz, oshqozon yarasi, o'sma, qandli diabet singari kasalliklarni keltirib chiqaradi. Olimlarning fikricha, inson ortiqcha his-hayajonga berilmasligi, aksincha, aql bilan ish tutib, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yib yashashi va shunga yarasha mehnat qilishi lozim.

Sog'gom turmush tarziga kamida 2 – 3 oyda ko'nikmalar shakllanib, 5 – 6 oyda ular mustahkamlanib, 1 yildan keyin esa bunday turmush tarzi Siz uchun kundalik odatga aylanadi. Siz haqiqiy sog'liq nima ekanligini ana o'shanda tushunasiz.



### O'SIMLIKALAR OLAMINING O'RNI BEQIYOS

Jahon sog'likni saqlash tashkiloti tomonidan berilgan ma'lumotlarga qaraganda, inson salomatligining 10 foizi tibbiy xizmatlarga, 20 foizi irlsiy omillarga, 20 foizi atrof-muhitdagagi oldini olish mumkin bo'lgan omillarning zararli ta'siriga, 50 foizdan ortiqrog'i esa har bir insonning turmush tarziga bog'liqligi e'tirof etilgan.

Sog'gom turmush tarzini shakllantirishda asosiy e'tibor inson salomatligini ta'minlashga qaratiladi. Bunda ekoliya, atrof-muhitni musaffo saqlash muhim omillardan hisoblanadi.

Atrofimizdagi muhitning ekologik holati bir me'yorda bo'lishini ta'minlashda o'simliklar olaming o'rni beqiyos. Oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak, o'simliklar havo, tuproq va suvni chang hamda har xil gaz chiqindilaridan tozalab, ularni kislorod bilan to'ldirib turuvchi laboratoriadir. Ba'zida shahrimiz va

qishloqlarimizda odamlar ko'rkam, yashil bargli daraxtlarni kesayotganini va barglarni ko'chalarda tutatib yoqayotganini ko'rib ta'bimiz xira tortadi. Chunki bizni kis-

lorod bilan ta'minlayotgan daraxtlarning shoxlari va barglarini ko'chalarda yoqishdan chiqayotgan gaz atrof-muhitni zaharlayotganini ko'pchilik tushunmaydi. Bu borada shu hududdagi ekoliyaga mas'ul kishilar va tashkilot rahbarlari bunday holatlarga ko'z yumib e'tibor bermasliklari ko'pchilikning sog'gom turmush tarziga zarar yetkazilayotganligini o'ylab ko'rsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Atrof-muhitdagii daraxtlarni asrasak va parvarishlasak, ular ko'kka bo'y cho'zib, o'zining soya-salqini bilan bizni issiqlidan saqlaydi, mevali daraxtlarimiz esa, o'zining har xil vitaminlarga boy bo'lgan mevalari bilan tanamizning sog'gom bo'lishiga xizmat qilish bilan birga bizni kislorod bilan ta'minlab, atrof-muhit musaffoligi va tozaligini saqlaydi.

**Sahifani shifokor  
Mirzaburxon DO'SMURODOV  
tayyorladi.**



ISPANIYA SAFARI

## KATTA TAJRIBA MAKTABINI O'TADI

Bekobodning "Metallurg" PFK qoshida faoliyat yuritayotgan futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari Ispaniya mamlakatiga ketma ket ikkinchi yil safar uyushtirishdi. Safarga futbol akademiyasida tahlil olayotgan eng namunali, intizomli, a'lochi o'quvchilar olib ketildi. Piriney oroliga yo'l olgan bu yilgi delegatsiyaga "Metallurg" PFK bosh direktori Shavkat Saidov boshchilik qildi.

Mazkur safardan ko'zlangan maqsad eng namunali tarbiyalanuvchilarni Akademiya nizomiga binoan "Real" (Madrid) akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishtirish bo'lsa, bu yilgi safarda xalqaro turnirda ishtirot etish ham ko'zda tutilgan.

1-iyul kuni Madridga yetib borib, bu shaharda ikki kun bo'lishgach, akademiyamiz tarbiyalanuvchilari San Sebastian shahriga yo'l olishdi va an'anaviy "Donosti Cup - 2023" musobaqasida ikki yosh toifasida ishtirot etishdi.

Turnirda jahoning eng nufuzli futbol akademiyalarining 860 ta jamoasi qatnashdi. Ham qizlar, ham o'g'il bolalar o'rtaida tashkillashtirilgan musobaqada barchaqit'alardan - 26 mamlakatdan jamoalar ishtirot etdi.

31-marta tashkillashtirilgan musobaqada o'zbekistonlik futbolchilar "Metallurg" timsolida birinchi marta qatnashishdi. Aytish mumkinki, birinchi urinish muvafiqiyatl chiqdi. "Metallurg" U-12"

jamoamiz guruh bosqichi bahslarida mezbonlarning ikkita jamoasi ustidan g'alaba qozonib, guruh peshqadami bilan asosiy vaqtida durang o'ynadi. Faqat over taymda imkoniyatni boy bergan o'smirlarimiz pley-off yo'llanmasini qo'lga kiritdi. 1/32 finalda esa Ispaniyaning namunali aka demiyalaridan biri - "Tip Top Akademeya" tarbiyalanuvchilariga murosasiz bahsda kichik hisobda imkoniyat boy berildi.

"Metallurg" U-17" yoshlarining ishtiroti esa bundanda muvaffaqiyatl chiqdi. Yoshlarimiz guruh bahslarida Ispaniya va Fransiya jamoalarini mag'lub etib, yuz foizlik natija bilan birinchi o'rinnni egallahshdi. 1/16 finalda AQSH, nimchorak finalda esa Ispaniya jamoalarini mag'lub etildi. Shuni e'tirof etish kerakki, chorak finalga mazkur yosh toifasida xorijliklardan faqatgina O'zbekiston jamoasi yo'llanma oldi. Yarim final ostonasida esa "Atletiko" (Madrid), "Xetafe" hamda "Rayo Vallecano" yoshlar jamoalarini o'yinchilaridan tashkil topgan Madrid



shahri terma jamoasiga imkoniyat boy berildi.

Shunisi e'tiborga molikki, turnir tashkilotchilari Osiyo qit'asi vakillari - "Metallurg" FK vakillarini TOP sakkiztalik qato-rida e'tirof etishgan edi. Bular - Portugaliyaning "Sporting", "Benfika", Ispaniyaning "Real Sosedad", "Madrid CFF" Angliyaning "Nyukasl", Gondurasning "Olimpiya", AQSHning "Orlando siti" hamda mezbonlar jamoasidir.

Akademiyamiz tarbiyalanuvchilari yakunda ham o'zlaridan ikki yosh katta bolalar musobaqasida qatnashishlariga qaramasdan kuchli sakkiztalikka kirishdi hamda tashkilotchilarning ishonchi va bashoratini to'liq oqlashdi.

"Donosti Cup - 2023" xalqaro turniridagi ishtirot "Metallurg" - U-12" hamda "Metallurg" - U-17" jamoalarimiz uchun katta tajriba maktabi vazifasini o'tab berdi.

**COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA. COCA-COLA. SUPERLIGA.**

### IRODALI G'ALABA

"Metallurg" birinchi davraning rasman oxirgi uchrashuvini - 13-turni 26-iyun kuni safarda - Toshkentda "Olimpik"ka qarshi o'tkazdi va irodali g'yalabaga erishdi. Bu o'yinda Jaloliddinovning jarimadan kiritgan supergoli ham mezbonlarni mag'lubiyatdan qutilib qolishiga yetarli bo'lindi. Ikkinci taymda tashabbusni to'liq o'z qo'liga olgan bekobodliklar maydon egalari darvozasi uchta gol kiritishib, o'z muxlislarini xursand etishdi.

Jasur Jaloliddinov 29-daqiqada mezbonlarni hisobda oldinga olib chiqdi. 66-daqiqada Zabixillo O'rinfoyev jarima zARBASINI qoyilmaqom tarzda amalga oshirib hisobni tenglashtirdi. Oradan ikki daqiqa o'tib yana standart vaziyatni golga aylantirdik. Temirovning qanotdan uzatib bergen to'pini Kasminin boshi bilan urib, darvoza to'riga tushirdi. Vaziyatga VAR aralashib golni bekor qildi. Qizil kartochka tufayli bir kishi kam bo'lib o'ynasada g'ayrat-shijoati jo'shgan hamshaharlarimiz baribir raqib darvozasi tomon yo'l topa olishdi. Yana sahnaga Zabixillo O'rinfoyev chiqdi. Uning olis masofadan tegan to'pini bu gal ham mezbonlar darvozaboni qaytara olmadi. Uchta goldan ikkitasi hisobga olindi. G'Alaba qozondik. "Olimpik" - "Metallurg" - 1:2



### G'ALABAGA YAQIN EDIK

3-iyul kuni 8-turning qoldirilgan uchrashuvini autsayder - "Turon"ga qarshi o'tkazganligimiz bois aksariyat muxlislarimiz jamoamizdan yengil g'yalabani kutishganligi bor gap. Ammo elitada jon saqlab qolish uchun kurashayotgan, turli muammolar girdobidagi yaypanliklarning yo'qotadigan narsasi qolmagandi. Buning ustiga yangi bosh murabbiy oldida asosiy tarkibning barcha o'yinchilari o'zlarini ko'rsatish uchun "boshlardan baland sakrashdi".

"Metallurg"ning esa omadi chopmadi. Asosiy tarkibning ikki nafer o'yinchisi - Kerim Palich va Husniddin G'ofurov diskvalifikatsiya bois jamoaga yordam bera olmadi. Bosh murabbiy boshlang'ich tarkibni amallab jamladi va deyarli o'yin oxirigacha ularga tayanishga majbur bo'ldi. O'yinni zahiradan tushib kuchaytiradigan kuchlarga esa unchalik ishonch bildirilmadi. Natijada fikri zikri raqib darvozasini ishg'ol etish bo'lgan yigitlarimizda ikkinchi taym oxiriga kelganda yaqqol charchoq sezildi.

Bevosita o'yin tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsak, to'liq tashabbus mezbonlar tomonida bo'ldi. Yigitlarimiz birinchi taymning o'zi dayoq masalani ijobji tomoniga hal etib qo'yishlari mumkin edi. Biroq Bektemir Abdumannonov, Shahzodjon Ne'matjonovlar qulay vaziyatlardan foydalana olishmadidi. Aksariyat holatlarda esa

mehmonlar posboni va himoyachilari mahorat ko'rsatishdi.

Ikkinci taymda ham o'yinda stsenariy o'zgaradi. Hujumni "Metallurg" amalga oshirdi. "Turon" himoyalandi va qarshi hujumda o'ynadi. Bekobodliklardan shu kuni ochiqchasiga omad yuz o'girdi. Darvozabondan ham o'tgan to'plarni gohida himoyachilar qaytarishdi. Ba'zan esa hujumchilarimizning o'zlarini unchalik murak-kab bo'limgan vaziyatlarda darvoza tomon yo'l topa olishmadidi. Biroq, shukuni mehmonlar ham g'alaba qozonib ketishlari mumkin edi. Bir safar Shohnazar Norbekovning bosh bilan bergen zarbasidan so'ng to'p darvoza ustuniga tegib qaytdi. Keyin esa Humoyun Murtozayev uch nafer himoya-chimiz orasidan osonlik bilan yorib o'tib, hisobni ochdi. Ana shu lahzalarda mahalliy futbolchilar - Abror Toshqo'ziyev hamda Shahzodjon Ne'matjonovlarning sa'y-harakati evaziga mag'lubiyatdan qutilib qoldik. Oradan ikki daqiqa o'tib mana shu juftlikning kombinatsiyasidan so'ng Shahzodjon hisobni tenglashtirdi - 1:1. O'yin shu hisobda yakunlandi.

Birinchi davrada "Metallurg" o'tkazilgan 13 o'yinda 3 g'alaba, 3 durang va 7 mag'lubiyat qayd etdi. To'plar nisbati 11-23. Bu uchrashuvlarda jami 12 ochko jamg'argan jamoamiz birinchi davrani 11-o'rinda yakunladi.

14-turda "Metallurg" Farg'onada 29-iyul kuni "Neftchi"ga qarshi maydonga tushib, ikkinchi davra o'yinlarini ham boshladi. O'yinda maydon egalari 1:0 hisobida ustun keldi.

### "METALLURG" JAMOASINING AVGUST OYIDAGI O'YINLARI TAQVIMI

- 15-tur, 4 avgust: "Metallurg" - "Navbahor"
- 16-tur, 13 avgust: "Qizilqum" - "Metallurg"
- 17-tur, 19 avgust: "Paxtakor" - "Metallurg"
- 18-tur, 30 avgust: "Metallurg" - "So'g'diyona"

### O'ZBEKISTON KUBOGI

1/8 final. 8 avgust: "Xorazm" - "Metallurg"



\*IBRATLI HIKOYA\*IBRATLI HIKOYA\*

Bir kishi vafot etdi, ayoli – yosh juvon qo'lidagi go'dagi yetim qoldi. Uning akasi bu beva ayolning ko'maksiz, bolakayning tarbiyasiz qolmasligi uchun hozir bo'ldi. Ayol eridan qolgan barcha mulkni qaynakasiga ishonib, unining tasarrufiga topshirdi. Ko'zlar hasaddan qoraygan aka jiyaning haqqi bo'lgan hamma mol-mulkni sotib, Amerikaga qarab juftakni rostladi. Uning omadi chopdi. U yerdan yaxshi ish topib, uylandi. Bola-chaqali bo'ldi. Ular avtomobil oldi-sotdisida mohir savdogarlarga aylanishdi. Ayoli ham eriga pulni ko'paytirishda qarashardi. Kun sayin boyishardi.

Ukasining bevasi esa, qashshoqlashib borardi. Ayol bolasining go'zal axloqli, o'qimishli bo'lishi uchun bor kuchini sarf etdi. Oradan 15 yil o'tib, aka o'z yurtiga qaytdi. Katta yer sotib olib, hashamatli qasr qurdi. U o'z

## YETIMNING HAQQI



savdosini davom ettirdi. Ukasining o'g'li yigit yoshiga yetgan edi. Amakisining oldiga otasidan qolgan merosdan hissa talab qilgani bordi.

\*IBRATLI HIKOYA\*IBRATLI HIKOYA\*

– Senga beradigan bir chaqam ham yo'q! Yo'qol, ko'zimga ko'rinnma, yana uyimga qadam bossang, o'zingdan o'pkala! – dedi amaki.

Yigit siniq holda validasining yoniga qaytdi. Amaki o'z qasrini eng yangi, sara jihozlar bilan bezatdi. Amerikadagi oilasini chaqirdi. Ularni o'zi kutib olishga qaror qildi. Lekin uya qaytish chog'ida avtohalokatga uchrashdi. Amaki, uning ayoli, farzandlari, barchalari vafot etishdi. Ajablanarlisi shunda ediki, bu yetim yigit amakisining yolg'iz, rasmiy merosxo'riga aylangandi. U eng qiyin, eng mashaqqatlari damlarni yashayotganida 15 yil o'tib, Alloh uning amakisi mulkini ko'paytirib berib, haqiqiy egasiga ziyodasi bilan qaytarishni taqdir qilganini bilmasdi. Ehtimol bu sho'rlik, mazluma onaning to'siqsiz ijobat bo'lgan duolarining samarasidir.

## \*QISQA HIKOYALAR\*

## GUMROH BANDALAR

Odamlarga hayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og'iz shirin so'zni tekinga aytmaydi-da, ular o'lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi...

Shukur XOLMIRZAYEV.

## OLTIN SO'ZLAR

Ba'zi insonlar hayotimizda xuddi soniyalardek, ba'zilari esa xuddi daqiqalardek, yana boshqalari esa huiddi bir umrdek gap. Ularni faqat o'limgina xotiralarimizdan o'chira oladi...

## ROSTGO'Y BO'LING, KO'PROQ YASHAYSIZ!

Yolg'on so'zlaysizmi? Qanday vaziyatlarda ko'proq yolg'on gapirasiz? Javob berishdan avval o'ylab oling. Fransiyalik olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, o'rta yoshli kishilar hafta davomida 11-15 марта yolg'on gapiradi.

Massachusetts universiteti olimlari esa voqeа hodisalarini bo'rtirib, yolg'on-yashiq so'zlar bilan boyitishni hush ko'rvuchilar muntazam bosh og'rigi



ka urinadi. Bu esa ruhiyatni ham, organizmni ham toliqtiradi.

Shunday ekan kasal bo'lishni istamasangiz va uzoq umr ko'rishni istasangiz, kamroq yolg'on gapiring.

## DONOLAR DEYDIKI...

Inson o'z hayatini o'zgartirishga qodir, qachonki u o'zining ichki olamini va o'z hissiyotlarini boshqara olsa.

\*\*\*

Agar temir ishlatilmasa zanglaydi, suv oqib turmasa ayniydi. Agar tafakkur qilishdan to'xtasa, aql ham shunday bo'ladi.

\*\*\*

Hayotning har bir lahzasiда, har bir soniyasida yaxshilikni, baxtni ko'ra oling – bu baxtli, omadli bo'lishning eng oson yo'lidi.

## BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

O'zbekiston hududidan 15 baravar katta bo'lgan cho'lning nomini bilasizmi?



99 foizi sahrodan iborat bo'lgan mamlakatni bilasizmi?

\*\*\*

Dunyoning qaysi davlati hududidan bitta ham daryo o'tmagan?



Qaysi dengiz uchta qit'a qirg'oqlarini yuvib turadi?

\*\*\*

Unga hech kim to'ymas ekan. Uni ichib ham bo'lmaydi, yeb ham bo'lmaydi. Bu nima?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Kit.

\*\*\*

Alisher Navoiy nomi qo'yilgan.

\*\*\*

Ichimlik suvi.

\*\*\*

Tut daraxtining ildizi 20 metrgacha atrofdagi namni tortish xususiyatiga ega. Ushbu binolarning zax tortmasligi uchun tut daraxtlari ekilgan.

\*\*\*

1924-yil 12-may.

## KELING, BIR KULISHAYLIK!

– Qizingni tur mushga beribsan, kuyoving qalay ekan?  
– Juda yaxshi chiqdi kuyovim, ko'z tegmasin. Qizimga tilla taqinchoqlar, ko'ylaklar olib beryapti!

– O'g'lingni ham uylantiribsan deb eshitdim, kelining-chi, u ham yaxshimi?

– Kelin emas, baloni o'zginasi! Bir qarasang tilla olib bering deb xarhasha qiladi, bir qarasang kiyim so'raydi...!

\*\*\*

Qari otaxon nabirasi bilan ovqatlanib o'tirsa, nabirasi gapirmoqchi bo'lib, endi og'iz ochsa, bobosi:

– Ovqat paytida gapirib bo'lmaydi, – deb tanbeh beribdi.

Ovqatlanib bo'lgach, "Endi gapir" desa, nabirasi:

– Boya ovqatingizga pashsha tushib qolgandi, shuni aytmoqchi edim, – dermish.

\*\*\*

Qo'shni o'g'lingizni tarbiyasini bilan yaxshilab shug'ullansangiz bo'lmaydim? Bemahalda tungi barlarda, kafelarda daydib yurarkan?!

– Sizga kim aytди?

– Ana qizim aytди, har kuni ko'rар ekan!

\*\*\*

– Allo, bu tez yordammi?

– Ha, bu tez yordam.

– Xotinim napitka, deb o'ylab baklashkadagi benzinni ichib yuboribdi, hozir ichi qizib hovlida yugurib yuribdi.

– Xavotir olmang benzin tugasa o'zi to'xtaydi.